

KOSTETSKIY V.A., TANSIQBOYEVA G.M., RAHIMOV R.I.

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinfi uchun o'quv qo'llanma


I qism

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

МАХБУРИЯ
НУСХАЛА



TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2015



342.4(075.3)

Корреспондент

UO'K: 372.834(075)

KBK 67.400(50')

K73

Kostetskiy V. A.

Konstitutsiya olamiga sayohat Q.1: umumiy o'rta ta'lim maktablari-ning 7-sinfi uchun o'quv qo'llanma / V. A. Kostetskiy , G. M. Tansiqboyeva , R. I. Rahimov - Toshkent : Yangiyo'l Poligraf Servis, 2015. - 48 b.

ISBN 978-9943-979-54-3

UO'K: 372.834(075)

KBK 67.400(50')

Metodik ishlanmalar: Toshpo'latova M. A., Asadova E. S., Afanasyeva I. V., Solovyeva S. E.

Taqrizchilar: Yuridik fanlar nomzodi, dotsent Zulfikarov Sh.X.; Toshkent viloyat pedagogik kadrlar malakasini oshirish instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri Abdurahmonova M.;

O'qituvchilar: Madaminov U., Krotova E., Ostanova F.

SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan



«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dan



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan



O'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savollar



Eslab qoling!



Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlar



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar



Uyga topshiriq


ISBN 978-9943-979-54-3

© Kostetskiy V., 2012, 2014, 2015.

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2012, 2014, 2015.

2016/70
A/118

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MA



O'quv qo'llanmada **Prezident Islom Karimovning** qonunchilik tashabbuslariga muvofiq **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga** kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar inobatga olingan



KONSTITUTSIYA VA INSON HARAKATLARI ERKINLIGI

Dars natijasida siz:

- odamlar hayotida qoidalar qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntira olasiz;
- qoidalarni yoza olasiz;
- darsda qoidalarni qo'llay olasiz;
- bir-biringizning xulq-atvoringizni qoidalar yordamida boshqara olasiz.



1. Rasmlarda aks ettirilgan fuqarolar o'zlarining qaysi huquqlaridan foydalanmoqda deb o'ylaysiz?
2. Ularning huquqlari qanday vaziyatlarda poymol etilishi mumkin?
3. Rasmlarga qarab hikoya tuzing.

Konstitutsiya va inson faoliyati erkinligi

6-sinfda Konstitutsiya olamiga sayohatimiz inson huquqlarini o'rganishga bag'ishlangan edi. Kishilar qanday qilib va qachon inson hayotining qadr-qimmatini tushuna boshlaganliklari, tenglik va erkinlik g'oyalari – inson huquqlari uchun kurasha boshlaganliklari haqida bilib olgan edingiz. Huquqlar tufayli inson o'z shaxsi, betakrorligi, o'ziga xosligini saqlab qoladi. Inson huquqlari — eng muhim demokratik

qadriyatdir. Ularga qonun tomonidan tan olingan va davlat tomonidan himoya qilinadigan shaxs erkinliklari va huquqlari kiradi. Inson huquqlari xalqaro qonunchilik me'yorlari tizimi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ilk marotaba shakllantirilgan. Binobarin, inson huquqlari butun kishilik jamiyatining mulki hisoblanadi.

Biroq, agar fikrlab ko'rilsa, inson huquqlari cheksiz bo'la olmasligi va cheklovlarni talab qilishi ravshanlashadi. Masalan, ayrim odamlarga musiqani baland ovozda tinglash yoqadi, boshqalarga esa shovqin-suron yoqmaydi. Axir kundalik hayotda shunday bo'lmaydimi? Bu holda biz nima qila olamiz? Savollarga javob berayotib, xulq-atvor tartibi haqida kelishib olish, ya'ni qoidalarni joriy etish zarur, degan xulosaga kelgan bo'lsangiz kerak. Bu qoidalar ba'zi odamlarning harakat erkinligini cheklaydi, ammo jamiyatdagi har bir insonning o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishida yordam beradi.



Qoida — hayotiy faoliyat jarayonida (ishda, oilada, maktabda va hokazo) shakllangan xulq-atvor tartibidir.

Sinfni jamiyatning kichik andazasi deb tasavvur qiling. Birgalikda o'qish va bilim olish uchun bu jamiyatga ham qoidalar kerak.



1-topshiriq

Guruhlarda sinfingiz uchun darsdagi xulq-atvor qoidalarini tuzing. Guruhlarning ro'yxatlarini taqqoslang va barchaga ma'qul keladigan qoidalarni tanlab oling. Ishni bajarayotganda «Yaxshi qoida mezonlari» eslatmasidan foydalaning.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Dars davomida amal qilish uchun nega aynan shu qoidalarni tanladingiz?
2. Ro'yxatingizda qaysi qoidalar ko'proq: nimanidir qilishni taqiqlovchi qoidalarmi yoki o'quvchi darsda o'zini qanday tutishini belgilab beruvchi qoidalarmi?

3. Darsda bu qoidalarga amal qilmaslik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?
4. Qoidalarigiz maktabingizning xulq-atvor qoidalariga zid kelmaydimi?
5. Qoidalarni o'qituvchi tuzgani yaxshimi yoki o'zingizmi? Nega?
6. Sinfdagilarning hammasi shu qoidalarga amal qilishga tayyormi?

Shunday qilib, darsda siz ega bo'lishni xohlagan huquqlarni birgalikda belgilab, ularni qoidalarda mustahkamlab oldingiz. Qoidalar tufayli biz boshqa dars ishtirokchilarining, ya'ni sinfdoshlaringizning huquq va erkinliklariga putur yetkazmaymiz. Odamlarga jamiyatda hayot kechirish uchun turli qoidalar zarurligi shubhasizdir.

«Yaxshi qoida mezonlari» eslatmasi

1. Qoidalar aniq va tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak.
2. Qoidalar amalda bajarilishi mumkin bo'lishi kerak.
3. Har bir qoida uch qismdan iborat bo'lishi kerak:
 - 1) xulq-atvor qoidasining o'zi;
 - 2) qoida amal qiladigan shartlar va qoida amal qilmaydigan mustasnolar;
 - 3) ushbu qoidani buzganlik uchun oqilona jazo-jarima chorasi.

Mumkin. Zarur. Mumkin emas

Dastlabki qoidalar – normalar (lotincha «norma»–«qoida, namuna» so'zidan) eng qadimgi odamlar orasida yuzaga kelgan. Ibtidoiy odamlar uchun hamma ishni birgalikda qilish hayot me'yori (normasi) sanalgan, aks holda ular kun kechira olmas edilar.

Jamiyat taraqqiy topishi bilan odamlar hayoti murakkablashib, qoidalar ham borgan sayin ko'paya boshladi. Yaxshilik va yomonlik nuqtayi nazarlaridan odamlarning xatti-harakatlariga baho beruvchi qoidalar vujudga keldi: halol bo'lish yaxshi, yolg'on gapirish, bironing narsasini olish yomon. Bunday

qoidalar axloq me'yorlari yoki axloqiy me'yorlar deb nomlanadi. Ayrim qoidalar yuzlab yillar davomida o'zgarmay, odatiy tusga kirgan, urf-odatga aylanib, avloddan-avlodga o'tgan va ko'pchiligi shu kungacha saqlanib qolgan. Masalan, ayrim Sharq xalqlari udumiga ko'ra, oilada o'g'il tug'ilganda otasi yigirma bir dona terak ekadi, negaki o'g'li 21 yoshda uylanib, shu daraxtlardan o'ziga uy qurishini nazarda tutadi.

Barcha xulq-atvor qoidalari orasidan eng muhimlari sekin-asta ajralib chiqadiki, ularni buzish butun jamiyat uchun xavf tug'diradi. Keyinchalik bu qoidalar huquq yoki huquqiy me'yorlarga aylanishi mumkin. Huquqiy me'yorlar boshqa barcha qoidalardan farqlanib turadi, ya'ni huquq alomatlariga ega bo'ladi, ular:

- odamlarning birgalikda hayot kechirishi uchun eng muhim sanalgan xulq-atvor qoidalari;
- mamlakatdagi barcha odamlar uchun umumiy hisoblanadi;
- davlat tomonidan himoya qilinadi.

Davlat umummajburiy huquqiy me'yorlarni qonunda qayd etib, ularga amal qilishni talab qiladi hamda huquqbuzarlarni jazolaydi. Shu tariqa, qonun jamiyatning farovonligi va xavfsizligini ta'minlaydi, odamlarga va mol-mulkka zarar yetkazilishining oldini oladi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishni yengillashtiradi, xalqaro muammolarni hal etishda yordam beradi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 24-moddasida quyidagilar belgilangan:



Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

Ko'plab huquq normalari an'analardan kelib chiqqanligi ham ma'lum. Masalan, o'zbek oilalarida, an'anaga ko'ra, kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar, farzandlariga g'amxo'rlik qiladilar. Konstitutsiyamizda oilaga alohida bob bag'ishlangan. Jumladan, 65-, 66-moddalarda quyidagilar yozilgan:



«Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi».



«Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar».

Davlatning asosiy qonuni – Konstitutsiya mamlakatning hayot qoidalarini belgilaydi. Konstitutsiya asosida boshqa qonunlar yaratiladi. Ammo qonunlarning o'zi hayotimizni yaxshi yoki yomon tomonga o'zgartirmaydi. Ular mavjud bo'lsa-yu, fuqarolar tomonidan bajarilmasa, qonunlar hech qanday kuchga ega bo'lmaydi. Qonunga amal qilinsagina, u kuchli bo'ladi.



2-topshiriq.

Ta'kidlarni o'qing:

1. Har bir avtobusda oldingi o'rindiqlar faqat bolali va nogiron yo'lovchilar uchun mo'ljallanganini eslatuvchi taxtachalarni ko'rish mumkin.
2. Kichiklar kattalarga har doim birinchi bo'lib salom beradilar.
3. Hayit kuni bolalar sovg'alar oladilar.
4. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari shart.
5. Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilik qilishga, spirtli ichimliklarni ichishga jalb etish jazolanadi.
6. Farzandlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalari zimmasiga yuklangan.

Ta'kidlarni qiyoslang va savollarga javob bering:

1. Huquq me'yorlari, udumlar, an'analarning umumiy jihatlari bormi?
2. Ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
3. Xalqimizda qonunlarga aylanmagan udum va an'analar bormi? Nima uchun? Misollar keltiring.
4. Inson erkinligiga an'analar, axloqiy me'yorlar, qonunlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

5. An'analar, axloqiy me'yorlar, qonunlarni bilish nima uchun muhim?

Ushbu darslikda siz nimalarni o'rganasiz?

7-sinfda siz qonun qanday yaratilishi, u hayotning turli jabhalarida xulq-atvorimizni qanday boshqarishi haqida bilib olasiz. Siz o'smirlarning huquqlarini himoya qiluvchi va ularning mas'uliyatini belgilovchi qonunlarni o'rganasiz. Qonun ijrosini nazorat qiluvchi va odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organlari va muassasalari faoliyati bilan tanishasiz. Siz turli usullar: munozara va muzokaralarni qo'llab, huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat va advokat maslahati, muammolarni hal etish va faol tinglashdan foydalangan holda, o'z huquqlaringizni himoya qilishni o'rganasiz.



O'zingizni tekshiring

1. Darsda samarali bilim olish uchun tuzgan qoidalarigizni qanday qo'llash mumkin?
2. Sizningcha, yana qayerda qoidalardan muvaffaqiyatli foydalaniladi?
3. Qoidalar va qonunlar nimasi bilan farqlanadi?
4. Jamiyatdagi tartib har bir odamning xulq-atvoriga qanday bog'liq bo'lishi mumkin? Misollar keltiring.
5. Qoidabuzarlikning oqibatlari qanday bo'ladi?



Uyga vazifa

Qoidalar va qonunlarni taqqoslang. Savollarga javob berib, mazkur taqqoslashlarni jadvalga kiriting.


Taqqoslash uchun savollar	Qoida	Qonun
Kim yaratadi?		
Ijroni kim nazorat qiladi?		
Kim va qanday jazolaydi?		



KONSTITUTSIYANING MAMLUKAT QONUN HUJJATLARIGA TA'SIRI

Dars natijasida siz:

- jamiyat qadriyatlari davlatning Asosiy qonunida qanday aks ettirilganini bilib olasiz;
- jamiyat qadriyatlari, Konstitutsiya va mamlakat qonunlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olasiz.



1. Rasmlarda aks ettirilgan shaxslarning hayoti va faoliyati qanday omillarga bog'liq deb o'ylaysiz?
2. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi ularning hayoti va faoliyatlari uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?

Jamiyat qadriyatlari va qonunlar

Jamiyatda dastlabki xulq-atvor qoidalari eng qadimgi odamlarda paydo bo'lgan. Ular kishilarning turmush darajasi, qadriyatlari, ma'naviy va moddiy imkoniyatlari, madaniy darajasini aks ettirgan. Kishilik jamiyati rivojlanishi bilan odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham murakkablashib borgan. Udumlar va an'analar yuzaga kelib, odamlar bir-birlarining xulq-atvorini nafaqat jismoniy kuch, aql-idrok nuqtayi nazaridan, balki

ular qilmishlarining «yaxshi» va «yomon» tushunchalariga mu-
tanosibli nuqtayi nazaridan ham baholay boshladilar. Jumla
qoidalar orasidan eng muhimlari sekin-asta ajralib chiqib, ush-
bu davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha odamlar tomo-
nidan ijro etilishi majburiy bo'lgan qonunlarga aylandi. Asrlar
davomida jamiyatda o'rnatilgan qoidalar takomillashib bordi.

Intilish va qadriyatlar o'zgarishi bilan jamiyat amal qiladigan
qonunlar ham ularga muvofiq o'zgaradi.



1-topshiriq.

Quyida ko'rsatilgan qonunlarda jamiyatning qaysi
qadriyatlari aks ettirilgani haqida fikr yuriting. Ushbu
qadriyatlar bir kishi, butun jamiyat uchun nimasi bilan
muhim?

1. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun.
3. Yoshlar to'g'risidagi qonun.
4. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'ri-
sidagi qonun.
5. Fuqarolik to'g'risidagi qonun.
6. Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun.

Konstitutsiya – davlat qonunchiligining asosi

1991-yilda O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishdi. Mam-
lakatimiz xalqi insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo
etish istagini bildirdi. Biroq bunga odamlar o'z fikrlarini erkin
izhor etib, partiyalar tuzishlari, erkin, muqobil saylovlarda ishti-
rok etishlari, jamiyat ishlarini boshqarishni ishonib topshirgan
shaxslar faoliyati to'g'risida hisobotni talab qila olishlari mum-
kin bo'lganda erishiladi. Odamlarning qadriyatlar va yuksak
g'oyalar to'g'risidagi tasavvurlarining o'zgarishi mamlakatimiz
Asosiy qonuni – Konstitutsiyasini o'zgartirishni talab qildi.

Konstitutsiya loyihasi ommaviy axborot vositalari orqali
e'lon qilinib, jamiyatda keng muhokama qilindi. Odamlar yan-
gi Asosiy qonunda jamiyatimizning nafaqat yangi qadriyatlari,

balki o'zbek xalqining ruhiy, ma'naviy qadriyatlari, uning udum va an'analari ham aks etishi lozimligi haqida fikr bildirdilar. 1992-yil 8-dekabrda mamlakatimizning oliy qonun chiqaruvchi va vakolatli organi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.



Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erki, or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat deb e'lon qilingan.

Konstitutsiya asosida bir qator yangi qonun va kodekslar, qabul qilindi. Ushbu qonunlarning asosiy vazifasi oliy konstitutsiyaviy qadriyat, ya'ni insonni himoya qilishdir.

1994-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Uning vazifasi shaxsni, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni va insonning xavfsizligini qo'riqlash, jinoyatlarning oldini olishdir. Jinoyat kodeksi shaxsga qarshi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi, jamoat tartibiga qarshi, iqtisodiyot sohasidagi, ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etganlar uchun jazoni nazarda tutadi.


1995-yil 1-apreldan amalga kiritilgan «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeks fuqarolarning jamiyatdagi xulq-atvorini, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni boshqaradi hamda ushbu qoidalarni buzuvchilar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Masalan, agar kishi mayda bezorilik, oz miqdorda talon-taroj qilish sodir etgan yoki yo'l harakati qoidalarini buzgan bo'lsa, unga nisbatan jarima ko'rinishidagi jazo chorasi qo'llaniladi.

Adolatli va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnatga oid huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini, ish beruvchining o'zboshimchaligini cheklash, xodimning erki va sha'nini mehnatga oid munosabatlarda himoya qilishni ta'minlash maqsadida 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeksning qoidalaridan xabardor bo'lgan kishi uni ishga qabul qilishdan bo'yin tovlayotganlarida, mehnat ta'tiliga chiqarmayotganlarida yoki ish haqini o'z vaqtida to'lamayotganlarida o'zini himoya qila oladi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi kuchga kirdi. Uning qonunlari davlatdagi fuqarolarning mulk va boshqa ashyoviy huquqlarini himoya qiladi. Ushbu kodeks moddalari mulkka kimlar va qay tariqa egalik qilishi va meros olishi mumkinligi, qanday qilib mulkni to'g'ri ayirboshlash, sovg'a qilish, bitimlar tuzishni o'rgatadi.

1998-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun kafolatni ta'minlaydi. Ushbu kodeksning qoidalari ko'pgina oilaviy muammolarni hal etishda yordam beradi. Unda er-xotinlar, ota-onalar va farzandlarning huquq va majburiyatlari, tug'ilganlikni ro'yxatga olish qoidalari, insonning familiyasi va ismini o'zgartirish shartlari hamda jamiyatimizdagi oila hayotining boshqa qoidalari mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining bolalar to'g'risidagi qonun hujjatlari



1. Nima uchun mamlakatimiz Konstitutsiyasida bolalar uchun alohida o'rin ajratilgan?
2. «Bolalar — bizning kelajagimiz» deganda nimani tushunasiz?



Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston aholisining 50 foizidan ortig'ini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi.

Bolalar huquqlari alohida moddalarida ajratib ko'rsatilgan Konstitutsiya boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar uchun asosdir. Barcha qonun va kodekslarning maxsus moddalari bolalarning alohida huquqlarini qayd etadi.

Oila kodeksida bolaning oiladagi barcha huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Oila kodeksidagi bir qator moddalar bolalarning mulkiy huquqini tushuntiradi. Agar bolaning huquqlariga putur yetkazilsa, u himoya huquqiga ega bo'ladi.

Fuqarolik kodeksi bolalarning mulkiy huquqlarini belgilaydi. Mazkur kodeksning 27- va 29-moddalarida bolalarda mavjud mulkni tasarruf etishga doir barcha imkoniyatlar sanab o'tilgan.

Mehnat kodeksi voyaga yetmagan xodimlar uchun imtiyozlar: qisqartirilgan ish haftasi, davomli mehnat ta'tili va uni faqat yoz faslida berishni belgilaydi.

Jinoyat kodeksining bir qator moddalari o'smirlarni javobgarlik yoki jazodan ozod qiladi. Jinoyat kodeksiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxs tomonidan jinoyatning sodir etilishi «jazoni yumshatuvchi vaziyat» deb hisoblanadi.



2-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidagi quyidagi moddalarni o'qib chiqing:

45-modda: «Voyaga yetmaganlar... huquqlari davlat himoyasidadir»;

41-modda: «...Maktab ishlari davlat nazoratidadir»;

64-modda: «...Davlat va jamiyat yetim bolalarni va otalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi...»;

65-modda: «...Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi».



Quyidagi savollarga javob bering:

1. Bosh qonunimizda bolalar haqida nima deyilgan?

2. Davlatimiz bolalarning huquqlarini Konstitutsiya orqali alohida mustahkamlaganining boisi nima deb o'ylaysiz?
3. Bu qonunlar bolalarni qanday himoya qiladi?



O'zingizni tekshiring

1. Jamiyatdagi barcha odamlar bir xil manfaatlarga egami?
2. Agar manfaatlarimiz turlicha bo'lsa, muammolarni qanday hal etamiz?
3. Qonunlar turli guruhdagi odamlarning manfaatlarini qanday aks ettirishi mumkin?
4. Qonun juda kichik guruhdagi odamlarning qadriyat-lari yoki fikrini himoya qilishi mumkinmi?
5. Agar qonunlar jamiyat qadriyatlarini aks ettirsa, nima uchun odamlar ham qonunlarga doim amal qilavermaydilar?



Uyga vazifa

Davlat qonunlari bolalarning huquqlarini himoya qilishidan xabardorsiz. Agar huquqlaringiz buzilsa, o'zingiz ularni himoya qilishga tayyormisiz?

Taklif etilgan har bir fikrga nisbatan o'z munosaba-tingizni bildiring:

1. Ota-onam 13 yoshda bu filmni ko'rishga hali erta desalar, o'z huquqlarim uchun kurashaman.
2. O'zimga yoqmaydigan kiyimni kiyishga majbur qilsalar, o'z huquqlarim uchun kurashaman.
3. Meni mehnat qilishga majbur qilsalar, o'z huquqlarim uchun kurashaman.

O'z nuqtayi nazaringizni himoya qilish bo'yicha yozma ish tayyorlang. Buning uchun vaziyatlardan birini tanlab oling. Bar-cha «yoqlaydigan» va «yoqlamaydigan» dalil-isbotlarni yozib qo'ying. So'ngra bitta xatboshida tanlangan vaziyatga doir shaxsiy nuqtayi nazaringizni asoslab bering. O'z nuqtayi naza-ringizni tasdiqlovchi yoki tushuntiruvchi misollarni keltiring.





ZARARLI ODATLAR VA QONUN

Dars natijasida siz:

- chekishni cheklash borasida turli xil fikr-mulohazalarni muhokama qila olasiz;
- muammoni hal etishga qaratilgan choralarni sanay olasiz;
- turli muammolarni hal etish choralarni qo'llashni o'rganasiz;
- tinglash ko'nikmalarini qo'llay olasiz.



Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noqli so'zlarini eslayman.



- 1- rasm orqali rassom qanday fikrni bildirmoqchi bo'lgan?
2. Bu inson o'zining qanday xatti-harakatlari natijasida zararli ko'nikmalar to'riga tushib qolgan deb o'ylaysiz?
3. Siz qanday fikrdasiz, tibbiyot xodimlari odamlarga chekish va giyohvandlik illatlaridan xalos bo'lishlari uchun doim ham yordam bera oladilarmi?

Chekish kerakmi yoki kerak emasmi?

Biz tasavvur qilayotgan sayohatimizda kutilmagan vaziyatlarga duch kelishimiz mumkin. Tasavvur qiling, barcha jamoat joylarida «Bu yerda hamma chekishi mumkin!» degan e'lonlar osib qo'yilgan.



1-topshiriq.

1. Ana shunday e'lonlarga siz qanday munosabatda bo'lasiz? O'z fikringizni asoslab, bayon qiling.
2. Kim, qachon va qayerda chekishi mumkin?
3. Chekish uchun cheklovlar bo'lishi kerakmi? Agar kerak bo'lsa, ular nimalardan iborat bo'lishi lozim?

Orangizda kimlar hamma xohlagan vaqtda va xohlagan joyda chekishi mumkin deb hisoblasa, sinfning bir tomoniga, agar kimki boshqa fikrda bo'lsa, qarama-qarshi tomonga tursinlar. Ikkala nuqtayi nazarga ham qat'iy qo'shilmaydigan bolalar sinfning o'rtasida turishlari mumkin.

Muhokamalardan so'ng quyidagi savollarga javob bering:

1. Tamaki chekish masalasi haqida to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlar bormi?
2. Baxs-munozaraga sabab bo'luvchi asosiy jihatlar nimalardan iborat.

Odatlar, zararli odatlar

Ko'p odamlar chekishni qoralaydilar, chekadiganlar esa: «Chekishni tashlay olmayman. Odat bo'lib qolgan», — deyдилar.

Sizningcha, odat nima o'zi?

Odatlar qanday bo'ladi? Ular bir-biridan nima bilan farq qiladi? Ulardan qaysilarini siz zararli odatlarga kiritasiz va nima uchun?

Yuqoridagi savollar xususida o'ylab ko'rib, biz siz bilan quyidagi xulosaga kelamiz:



Odat har doim amalga oshiriladigan, takrorlanadigan va ehtiyojga aylanadigan harakatdir.

Insonga va uning atrofidagilarga zarar keltiradigan odatlarni zararli deb hisoblash kerak. Odatda, turli xil zaharli moddalarni iste'mol qilish, ya'ni kashandalik, giyohvandlik, toksikomanlik, ichkilikbozlikni eng zararli odatlar deb hisoblaydilar.

Kashandalik va jamiyat

Tamaki chekish misolida zararli odatlar keltiradigan muammolar jamiyatda qanday hal qilinishini ko'rib chiqamiz. Bu muammolar allaqachon xalqaro muammolarga aylanib bo'lgan. 1974-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti huzurida chekish va uning odamlar sog'lig'iga ta'sirini o'rganuvchi ekspertlar qo'mitasi tuzildi. Ko'pgina mamlakatlarda tamaki mahsulotlari qutilarida chekishning zarari haqida ogohlantirish belgilari bor.

Prezident Islom Karimov tomonidan 2011-yil 5-oktabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasining «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda ichkilikbozlik va kashandalik kabi illatlarga qarshi kurashishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu qonunga ko'ra tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishiga nisbatan cheklovlar keskin kuchaytirildi. Jumladan:



«Tamaki mahsulotining qutisida (o'rovida) tamaki mahsuloti qutisi (o'rovi) old tomoni asosiy yuzasining kamida qirq foizini va orqa tomoni asosiy yuzasining kamida qirq foizini egallaydigan matnli yozuv va (yoki) rasm tarzidagi tibbiy ogohlantirish bo'lishi kerak» (12-modda).

«Alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni targ'ib etish, ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilishni rag'batlantiruvchi, shaxsda ularni iste'mol qilishning zararsizligi haqidagi tasavvurni shakllantiruvchi g'oyalar, qarashlar hamda badiiy obrazlarni oshkora yoki yashirin shaklda tarqatishga qaratilgan xatti-harakatlar taqiqlanadi» (18-modda).

Ushbu qonunga ko'ra jamoat joylarida tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.



2-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlarni o'qib chiqing. Uchta guruhga bo'linib shu vaziyatlarni ijro etishga tayyorlaning. So'ngra o'sha vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni guruhingizda muhokama qiling. «Muammoni yechish choralari» eslatmasi yordamida qaror qabul qiling. Qaroringizni sinfdagilarga izohlab bering.

1-vaziyat.

Ashaddiy kashanda

Idorada ishlaydigan ayollar jamoasida Ravshan bitta-yu bitta erkak. Ular ishlaydigan joy kichkina, ikkita o'zaro qo'shilgan xonadan iborat. Ravshan – ashaddiy kashanda. U: «sigaretasiz yashay olmayman», — deydi. Ayollar undan xonada chekmaslikni ko'p iltimos qildilar, chunki tutun ularning ahvollariga ta'sir qiladi va ishlariga xalaqit beradi. Lekin Ravshan ularning iltimoslariga parvo qilmaydi. Shunda ayollar boshliqlariga xonada chekmaslikni qoida qilib kiritishni so'rab murojaat qildilar. Boshliq ularga shu qoidaning matni haqida o'ylab ko'rishni va o'z fikrlarini unga taqdim etishni taklif qildi.

2-vaziyat.

Sigaretalar ishqibozi

Ancha vaqtdan buyon bir odam oshxonaga tushlik qilgani kelib turadi. Tushlikdan keyin, u og'zidan sigaretasini olmasdan, gazeta o'qib o'tirishni xush ko'radi. Oshxonaning boshqa mijozlari sigareta tutuni sog'liqqa zararliligini va bu ularga ovqat yeyishda xalaqit berishini aytib, shikoyat qiladi. Ulardan ko'pchiligi oshxona egasiga murojaat qiladi va oshxonada chekishni taqiqlash zarurligini aytadi. Lekin oshxona egasi hech nima qila olmasligini, bunday taqiq kashandaning huquqlariga putur yetkazishini ro'kach qildi.

«Muammoni hal etish choralari» eslatmasi

1. Muammo nimadan iborat ekanini tushuntirib bering. Uni to'g'ri tushunganingizga ishonch hosil qiling.
2. Muammo qanchalik dolzarb? Muammoga aloqadorlarning hammasi ham uni hal etishni xohlaydirlarmi?
3. Barcha muqobil yechimlarni atroflicha o'ylab ko'ring.
4. Har bir yechimning oqibatlarini muhokama qiling.
5. Sizga eng ko'p yoqqan yechimni tanlang va uning qanday qo'llanishini ayting.

Topshiriqni bajargandan keyin quyidagi savollarga javob bering:

1. «Muammoni hal etish choralari» eslatmasi ishda yordam berdimi?
2. Maktabingizda yoki uyingizda shunga o'xshash muammolar bormi?
3. Boshqa muammolarni hal etishda eslatmani qo'llash mumkinmi?



O'zingizni tekshiring

1. Muammolarni hal etish nima uchun muhim?
2. Muammo hal etilmasa, nima yuz beradi?
3. Muammoni hal etish osonmi? Nega har doim ham kelishib olishning, ya'ni muammoni kelishuv yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lavermaydi?
4. Nima uchun muammoni hal etishda turli xil fikrlar tug'iladi?
5. Qaror qabul qilishda doim nimani hisobga olish kerak? Nimaga?



Uyga vazifa

Uyda yoki do'stlaringiz bilan «Muammoni hal etish choralari» eslatmasini qo'llab, biror-bir muammoni hal etishga urinib ko'ring. Natijalar haqida sinfingizda so'zlab bering.



«QONUNLAR QANDAY YOZILADI?»


AMALIY DARS

Dars natijasida siz:

- qonun nima maqsadda qabul qilinishi haqida tasavvurga ega bo'lasiz;
- qonun qanday yozilishini o'rganasiz;
- deputatlar qanchalik muhim va mas'uliyatli ishni bajarayotganliklarini tushunib olasiz.



Huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir.



1. Oliy Majlis Senati senatorlari va qonunchilik palatasi deputatlarining ishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Agar ixtiyor sizda bo'lsa, siz birinchi navbatda qanday qonun qabul qilar edingiz va nima uchun?

Qonunlarni kim va nima maqsadda qabul qiladi?

Jamiyatda yuzaga keluvchi nizolarni hal etish yo'llaridan biri qonunga murojaat qilishdir. Lekin siz qonunlar qayerdan kelib chiqishi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Kim ularni «o'ylab topadi», kim yozadi, nima uchun vaqt o'tishi bilan qonunlar o'zgaradi?



O'zbekistonda qonun chiqarish huquqi yuqori
qonun chiqaruvchi organ – **Oliy Majlisga** tegishlidir.

Oliy Majlis mamlakat qonunlarini qabul qiladi. Ya'ni xalq saylagan deputatlar birga yig'iladilar, birgalikda qonun loyihasini muhokama qiladilar, agar zarur bo'lsa, uni to'ldiradilar, tuza-tishlar, o'zgartishlar kiritadilar, so'ngra uni qabul qiladilar. Bu holda qonun loyihasi qonunga aylanadi. Shu vaqtdan boshlab u hamma uchun majburiydir. Shunday qilib, jamiyat qanday me'yorlar bo'yicha yashashini qonun chiqaruvchi organ belgilaydi.

Har qanday fuqaro yoki fuqarolar guruhi, jamoat birlashmalari, partiyalar o'z deputatlari orqali amaldagi qonunlarga o'zgartirishlar, to'ldirishlar yoki yangi qonunlarni qabul qilish bo'yicha takliflarini kiritishlari mumkin. Qonunchilik tashabbusi huquqiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik o'rgani orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi egadirlar.

Prezident Islom Karimov o'zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisidagi ma'ruzasida Konstitutsiyamizning 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni taklif qildi. Bu tashabbus mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Bu o'zgartish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan Konstitutsiyaga kiritildi.

Oliy Majlisda ro'y berayotgan hodisalar, qanday qonun loyihalari muhokama qilinayotgani, qanday qonunlar qabul qilina-yotgani haqidagi ma'lumotlarni «Oliy Majlis axborotnomasi»dan, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlardan, gazetalar va jurnal-lardan bilib olishingiz mumkin. Qonunlarning to'liq matnlari «O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari» to'plamida, «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalarida chop etiladi.



1-topshiriq.

Tasavvur qiling, siz chekish haqida yangi qonunni ishlab chiqarayotgan komissiyaning a'zosisiz. Siz tamaki chekishni butunlay taqiqlash yoki, kamida, chekishni jiddiy chegaralashga erishishni o'z oldingizga maqsad qilib qo'ygansiz.

O'ylab ko'ring:

1. Odamlar sizning yangi qonuningizga rioya etishlari uchun nima qilish kerak?
2. Ko'pchilik sizning qonuningizni bajarishdan bosh tortsalar nima bo'lishi mumkin?
3. Sizning qonuningiz insonning ixtiyor erkinligini qanchalik kuchli chegaralaydi?

Guruhlarga bo'ling va qonun matnini tuzing. Bunda «Qonun yozish bo'yicha tavsiyalar»dan foydalaning.

Qonun matnini «Qonun loyihasi» varag'iga joylang va butun sinfga o'qib bering. Qonunlaringiz matnlarini o'zaro solishtiring, savollarga javob bering:

1. Ular nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qiladi?
2. Qanday jazo chorolari yanada samarali bo'lishi mumkin?
3. Muammoni yana qanday qilib hal etish mumkin?

Topshiriqni bajarish uchun materiallar

Qonun loyihasi

Qo'mita a'zolari: _____

Sana: _____

Bizning qonun: _____

Loyihani muhokama qilish uchun savollar:

1. Qonunning maqsadi nima?
2. Qonunning matni aniqmi yoki mavhummi?
3. U tushunarli yoki tushunarsizmi?
4. U boshqa qonunlarga zid kelmaydimi?
5. Qonunni buzganlik uchun jazolar, jarimalar tushunarlimi va ularni qo'llasa bo'ladimi?

Dars nihoyasida quyidagilarni muhokama qiling:

1. Qonun matnini tuzish qiyin bo'ldimi?
2. Berilgan topshiriqni bajarish foydali bo'ldimi?
3. Siz uni bajarayotganda nimani o'rgandingiz?
4. Siz deputat bo'lishni va shunday ishni bajarishni xohlaysizmi? Nima uchunligini tushuntiring?

«Qonun yozish bo'yicha tavsiyalar»

1. Bitta jumla bilan qonunning maqsadini belgilang.
2. Muhokama qilinishi kerak bo'lgan muammolar ro'yxatini tuzing.
3. Har bir muammoni bitta jumla bilan yozib qo'ying.
4. Qonun matnini tuzish uchun jummalarni birlashtiring.
5. Qonunni yozib bo'lgandan so'ng, u hamma muammolarni qamrab olish yoki olmasligini tekshiring.
6. Tarqatma varaqlarda qonunni yozib chiqing.
7. Tarqatma varaqlarning oxirida berilgan savollarga javob bering. Sizning qonuningiz ularda so'ralayotganlarga (shu savollarning mazmuniga) muvofiqmi?



O'zingizni tekshiring

1. Siz barcha odamlar amalda o'z hayotlari uchun o'zlari javob bera olishga qodir deb hisoblaysizmi?
2. Siz o'zingizni hayotingiz uchun javob bera olishga, siz uchun nima foydali va nima zararli ekanligini tanlashga qodir deb hisoblaysizmi?
3. Siz o'z xavfsizligingiz masalalarini mustaqil hal etishni xohlaysizmi yoki siz haqingizda jamiyat qayg'urishini afzal ko'rasizmi?
4. Shu kabi harakatlarni hukumat organlari qilishi kerakmi? Agar shunday bo'lsa, qaysi hollarda?



Uyga vazifa

Guruhingiz bilan birgalikda yozilgan qonun matni ota-onangiz bilan birga muhokama qiling. Ular qonunning qaysi qoidalari bilan hamfikrlar va ularning fikriga ko'ra qaysilari to'ldirish va o'zgartirishlarni talab qiladi?

FUQAROLIK HUQUQI VA O'SMIRLAR

Beshinchi sayohat



VOYAGA YETMAGANLARNING MULKIY HUQUQLARI

Dars natijasida siz:

- mulkiy huquqlarning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntira olasiz;
- o'smirning mulkiy huquqlarini aytib bera olasiz.



1. Rasmdagi bolalar qanday huquqlardan foydalanmoqdalar?
2. Siz nimalar shaxsiy mulk, nimalar davlat mulki ekanligini ajrata olasizmi? Misollar keltiring.

Mulkdorning huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlari

Biz «ashyolar dunyosi»da yashaymiz. Yer, o'rmon, suv, binolar, temir yo'llar, samolyotlar, kemalar – bularning hammasi, huquq nuqtayi nazaridan olganda – ashyolardir. Xonada ham atrofingizni ashyolar: mebel, kiyim, poyabzal, surat va hokazolar qurshab turadi.

Mulk haqida so'zlaganda aynan buyumlar nazarda tutiladi. Eng qadimgi zamonlardan boshlab inson doimo turli moddiy ne'matlarni, ya'ni ashyolarni taqsimlash muammosi bilan to'qnashadi. Har birimiz bolakayning o'yinchoqni ko'ksiga mahkam bosib, «Meniki!» deyishini ko'p marotaba kuzatgan-

miz. «Meniki» – menga sotib olib berishgan yoki sovg'a qilishgan narsa mengagina tegishli ekanligini anglatadi va men uni hech kimga berishni xohlamayman, – hatto kichkintoy ham o'z mulkini himoya qilishga tayyor.

Mamlakatimizda ham «ashyolarga bo'lgan huquq»ni mustahkamlashga qaratilgan, mulkiy nizolarni hal etishda yordam beradigan bir qancha qonunlar mavjud.



Mulkiy munosabatlarni tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari (me'yorlari) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yilgan.

Davlatimizning Oila kodeksi er-xotinlar, ota-onalar va bolalarning mulkiy huquqlari hamda burchlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksi mulkka tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar uchun jazo choralarining hajmini belgilaydi. Iqtisodiyot sohasida jinoyat sodir etganlar Jinoyat kodeksiga asosan jazolanadi.



1-topshiriq.

Savollarni guruhlarda muhokama qiling va javob bering:

1. Mol-mulk tufayli yuzaga keladigan nizolarga misollar keltiring.
2. Mulkka egalik huquqini amalga oshirishda o'smir bilan katta kishi o'rtasida farq bo'lishi kerakmi?

Barcha kodekslarning maxsus qoidalari bolalarning mulkiy huquqlarini tartibga soladi.

Fuqarolik kodeksida barcha fuqarolar, yoshidan qat'i nazar, mol-mulkka ega bo'lishga haqidirlar, deb belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mulkdor huquqlarining himoya qilinishini kafolatlaydi:



«...Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir...» (53-modda).

Mulk huquqini buzish ashyoni yo'q qilish yoki uni shikastlashda ifodalanishi mumkin. Bunday harakatlar natijasida ashyo o'z qiymatini to'liq yoki qisman yo'qotadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bunday holda zararni mulkdorga to'lashni nazarda tutadi, buning ustiga voyaga yetmagan shaxs yetkazgan zarar uchun uning ota-onasi javob beradi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlarini himoya qilib, ota-onalar bolalar mol-mulkinging egasi bo'la olmasligini belgilaydi.

Huquqimiz bor, lekin undan foydalana olamizmi?

Mulkiy munosabatlarda ishtirok etish uchun fuqaro **huquq layoqati** va **muomala layoqatiga** ega bo'lishi kerak.

Insonning huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati **fuqarolik huquq layoqati** deb ataladi. Huquq layoqati fuqarolar aynan qanday huquqlarga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi savolga javob beradi. Fuqarolik kodeksining 18-moddasida bu haqda batafsil so'z yuritiladi.



Unda belgilanishicha, «Fuqarolar: mulk asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik... bilan shug'ullanishlari mumkin...»

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan vaqtda yuzaga keladi va uning vafot etishi bilan tugaydi.



Muomala layoqati – fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik majburiyatlarini bunyod etish va ularni bajarish layoqatidir.

Huquq sohibi bo'lish uchun ma'lum harakatlarni amalga oshirish, ko'pincha shartnoma tuzish lozim. Masalan, uy-joy egasi bo'lish uchun uni sotib olish yoki sovg'a sifatida qabul qilish; atelyeda o'zi uchun kiyim tiktirish uchun unga buyurtma berish kerak. Lekin huquqqa ega bo'lish hamda uni tasarruf etish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Qonun voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qilishi bilan birga uning mazmun mohiyatidan shunday xulosa kelib chiqadi: «Har kim huquq va burchlarga ega bo'lishi mumkin, biroq oqilona, ishning ko'zini bilib harakat qilishga layoqatli insongina huquq sohibi bo'lishi va zimmasiga burchlar olishi mumkin». Aynan shuning uchun Oila kodeksi voyaga yetmaganlar xususiy mulkini ularning ota-onalari yoki vasiylar boshqaradi va tasarruf etadi deb belgilaydi.

Voyaga yetmaganlar o'zlarining qaysi yoshdan qanday mulkiy munosabatlarda ishtirok eta olishi mumkinligini bilishi ular uchun hayotiy zaruratdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida voyaga yetmaganlarning mulkiy munosabatlarda ishtirok etish huquqlari har xil yoshdagi bolalar uchun alohida keltirilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra bola 6 yoshdan 14 yoshgacha ayrim mulkiy munosabatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Qolgan bitimlarni esa uning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylar tuzishi mumkin.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra o'smir ayrim hollarda 16 yoshdan boshlab to'la muomalaga layoqatli deb tan olinishi mumkin. Bu hollarga misol qilib o'smir mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanayotgan hollarni keltirish mumkin.

Voyaga yetmaganlarning qonun tomonidan muomalaga layoqatli deb tan olinishi ularga ma'lum huquqlarni berishi bilan bir qatorda zarur majburiyatlarni ham yuklaydi.

Voyaga yetmaganlarning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan huquq va majburiyatlari bilan kito-bimizning keyingi mavzularida tanishamiz.

Agar bola uning mulkini kattalar qanday tasarruf etayotganiga rozi bo'lmasa va nizo yuzaga kelsa, qonunga murojaat qilinadi:

«Ota-ona va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida kelib chiqqan mulkiy nizolar sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi. Bunday hollarda voyaga yetmagan bolalarning huquqini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi» (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 95-moddasi).

Agar ularni zararga (ichkilik, giyohvandlik vositalari va hokazolarga) ishlatadigan bo'lsa, sud voyaga yetmaganni o'z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf etishdan mahrum qilishi mumkin.



2-topshiriq.

Guruhlarga bo'linging – «yuridik firmalar»ni tashkil qiling. Har bir vaziyatda ish dalillarini o'rganing, zarur qonun hujjatlarini toping va taraflardan birini himoya qilish uchun dalil-isbotlarni shakllantiring. So'ngra mazkur masala bo'yicha qaror chiqaring.

1-vaziyat.

Bobo o'zining 12 yashar nevarasi Alisher uchun bankda hisobvaraq ochdi. Ikki yil o'tdi va otasi Alisherning hisobvarag'idan pulni olib, avtomobil sotib olish uchun unga berishini talab qildi. «Mashina baribir keyinchalik senga qoladi», — deb Alisherga uqtirdi otasi.

2-vaziyat.

Ota-onasi ajrashganidan keyin Aqida onasi bilan qoldi. Otasi qiziga to'laydigan alimentlarni ona turar joy maydonini kengaytirish uchun yig'ib qo'yardi. Qizaloq unga yangi ko'ylak va poyabzal sotib olishni iltimos qilganida, onasi unda pul yo'qligini aytdi.



1. Har bir vaziyatda qaror qabul qilish va oqibatlarini belgilash qiyin bo'ldimi? Nima uchun?

2. Sizing mulkiy huquqlaringiz qay tarzda buzilishi mumkinligiga misollar keltiring.



O'zingizni tekshiring

1. Agar uy-ro'zg'or xo'jaligingizda hamma narsa qonun bilan tartibga solinsa, nima bo'lar edi?
2. Qonunlar uyingizda nizoga sabab bo'lishi mumkinmi?
3. Mulk to'g'risidagi qonunlarni zarur va foydali deya hisoblaysizmi?
4. Agar oila hayoti shu tarzda tartibga solinsa, biz nimani yo'qotamiz?
5. Qonun oila ishlariga qachon aralashishi kerak?



Uyga vazifa

Uyda jamoatchilik fikri so'rovini o'tkazing; so'rov natijalarini jadvalda qayd eting. O'z natijalaringizni sinfdoshlaringiz olgan natijalar bilan qiyoslang.

Qiyoslash uchun savollar	Ota-ona	Boshqa qarindoshlar	Do'st yoki dugona
O'smir qanday mulkka egalik qilishi mumkin?			
Necha yoshdan boshlab u o'z mulkiga to'liq egalik qila oladi?			
Agar u boshqalarning mulkiga zarar yetkazsa, necha yoshdan boshlab javobgar bo'lishi kerak?			



Oltinchi sayohat

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN BITIMLAR TUZILISHI

Dars natijasida siz:

- bitim, shartnoma nimaligini tushuntira olasiz;
- voyaga yetmaganlar tomonidan bitim tuzilishining xususiyatlarini aytib bera olasiz;
- bitimlar tuzilayotganda uning mohiyatini idrok qila olasiz.



1. Rasmdagi fuqarolar qanday bitimlarni amalga oshirishlari mumkin?
2. Qay holatda huquqlar buzilishi mumkin?

Shartnoma. Taraflarning huquq va majburiyatlari

Huquqshunoslik nuqtayi nazaridan to'la asos bilan insonning hayoti benihoya ko'p shartnomalarni uzluksiz tuzishdan iborat, deb aytish mumkin.

Shartnoma – bitim demakdir. Do'kondan kitob xarid qilish, mobil telefonga pul to'lash, vasiyatnoma tuzish – bularning hammasi bitimlardir. Qonun nuqtayi nazaridan olganda, bitim fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatdir.

Har qanday bitimning xususiyati shundaki, ular biror-bir maqsadga erishish uchun tuziladi: televizor sotib olish uchun do'kon bilan shartnoma; telefondan foydalanish uchun aloqa bo'limi bilan shartnoma tuzish zarur.

Bitim qonuniy bo'lishi uchun muayyan shartlarga javob berishi lozim:

1. Bitim tuzuvchi ongli ravishda harakat qilishi, ya'ni o'z harakatlari oqibatlarini tushunishi kerak. Masalan, eski futbol to'pini tilla uzukka almashmoqchi bo'lgan bitiruvchi sinf o'quvchisi bilan birinchi sinf o'quvchisi o'rtasidagi bitimni qonuniy deb hisoblash mumkin emas. Birinchi sinf o'quvchisi onasining doim qutichada turadigan mo'jaz uzugi katta va chiroyli koptokdan qimmat ekanligini tushunib yetmaydi.
2. Bitim tuzuvchi majburlovsiz, erkin qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi yangi krossovkangizni o'zining eski krossovka-siga almashtirsa, siz unga rad javobi berishdan qo'rqqan bo'lsangiz, bunday bitim haqiqiy emas.
3. Qonuniy, ya'ni amaldagi qonunlarga muvofiq, masalan, Fuqarolik kodeksining 117-moddasida belgilanishicha, «14 yoshga to'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas».

Shartnoma shakllari

Bitimlar ikki xil shaklda bo'ladi: og'zaki va yozma. Og'zaki bitim, shunchaki, o'zaro og'zaki kelishuv bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari og'zaki bitimga avtobus chiptasi, metro jetoni yoki lotereya chiptasi kabilarni kiritisa bo'ladi. Kichik bitimni yozma shaklda tuzish hamda notariusda tasdiqlatish mumkin. Biroq ba'zi hollarda bitimning yozma shaklda notarius tomonidan tasdiqlanishi majburiydir. Masalan, tashkilotlarning o'zaro va fuqarolar bilan og'zaki shartnomalar tuzishiga, shuningdek, fuqarolar eng kam ish haqining o'n baravaridan oshadigan summaga og'zaki bitim tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunda yozma bitimlar tuzishning maxsus shakllari belgilanmagan. Ular erkin shaklda yoziladi. Yozma bitimga kiritiladigan shartlar xilma-xil bo'lishi mumkin va ahdlashuvchi taraflar tomonidan belgilanadi.

Har qanday bitim ham shartnoma hisoblanmaydi. Shartnoma ikki yoki ko'p taraffli bitim ekanligi uni farqlab beruvchi xususiyatdir.

Fuqarolik kodeksi, 353-modda:

«Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi...»

Ikki yoki bir necha shaxs bir-biriga o'z xohish-istagini aytgan va bu xohish-istak muvofiq kelgan joyda shartnoma vujudga keladi. Bir taraf – sotib ol, ijaraga ol, qarz ber, sot va hokazo degan taklif bilan chiqishidan shartnoma boshlanadi. Agar uning taklifi ikkinchi tomonga ma'qul kelib, o'zaro kelishuvga erishilsa, shartnoma tuziladi.

Fuqarolik kodeksi, 357-modda:

«Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi...»

Oldi-sotdi shartnomasi eng keng tarqalgan va tez-tez tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Bu shartnoma bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni ikkinchi tarafga (xaridorga) berish majburiyatini oladi. Xaridor esa bu tovarni qabul qilish va muayyan pul summasini (narxini) to'lash majburiyatini oladi. Zero, hatto bir quti gugurtni sotib olar ekanmiz, bunda sotuvchi bilan og'zaki oldi-sotdi shartnomasini tuzamiz va bizning munosabatlarmizni qonun tartibga soladi. Mazkur holda «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun amal qilishini kuzatamiz.



Topshiriq.

Tasavvur qiling, siz dostingizning tug'ilgan kuniga sovg'a xarid qilish uchun do'konga kirdingiz, lekin sotuvchi sizga oldi-sotdi shartnomasini tuzishni taklif qildi. Bunday shartnomani imzolashingiz kerakmi?

Shartnoma tuzgan kishining zimmasiga uni bajarish burchi (majburiyati) yuklanadi.

Shuning uchun davlatimizda bolalar ishtirok etadigan shartnomalar alohida qonun bilan himoyalanaadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 118-moddasida shunday belgilangan: «14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan... uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining rozilgi talab qilinadigan hollarda ularning rozilgisiz tuzilgan bitim... sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin». Ushbu kodeksning 131-moddasida shunday deyilgan: «Muomalaga layoqatsiz fuqarolar nomidan bitimlarni ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylari tuzadilar».



O'zingizni tekshiring

1. Bitim nimadan iborat bo'ladi?
2. Bitim tuzayotganda barcha shartlarni aytib o'tish nima uchun muhim?
3. Qachon kishining o'zi bitim tuzishi mumkin?
4. Qachon bitim tuzayotganda notariusga murojaat qilish zarur?
5. Nima uchun qonun o'smirlar tomonidan bitim tuzilishi chog'ida cheklashlarni mustahkamlaydi?
6. Bitim tuzish chog'ida o'smirlarda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
7. Ushbu muammolarni hal etishda sizga bitim tuzish shartlari to'g'risidagi qanday bilimlar yordam beradi?



Uyga vazifa

Uyda dars mavzusi haqida so'zlab bering. Ota-onangizga siz bilan birgalikda uy ishlariga oid burchlarni bajarish shartnomasini tuzishni taklif qiling.



ISTE'MOLCHINING HUQUQLARI VA O'SMIR

Dars natijasida siz:

- «iste'molchi», «tamg'alash», «mahsulot» atamalarini belgilay olasiz;
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qiladigan qonunlarning vazifasini ayta olasiz;
- xarid oldidan nima qilish zarurligi to'g'risida maslahatlar bera olasiz;
- yorliqlar va o'ramlarda qanday axborotlar bo'lishi kerakligini bilib olasiz.



1. Rasmlarning bitim tuzish iborasi bilan qanday bog'liqligi bor deb o'ylaysiz?
2. Rasmlardagi shaxslardan qaysilari tadbirkor, qaysilari iste'molchi?
3. Agar tadbirkorning mahsuloti bolalarga yoqmasa, ular nima qilishlari lozim deb o'ylaysiz?

Hammamiz iste'molchimiz

Tovarlar yoki xizmatlarni sotib oluvchi yoki ulardan foydalanuvchi kishi iste'molchidir. Tish shifokoriga, sataroshga

borsangiz yoki transportda yursangiz yoxud poyabzalingizni, soatni tuzatish uchun ustaga topshirsangiz, siz xizmatlar iste'molchisi hisoblanasiz. Oziq-ovqat mahsulotlari yoki sanoat tovarlarini sotib olsangiz, ularning iste'molchisi bo'lasiz. Televizordan kuy tinglasangiz yoki changyutkichdan foydalanib xonani tozalasangiz ham iste'molchi hisoblanasiz. Hamma tovarni o'zingiz sotib olmasdan, unga ota-onangiz, qarindoshlaringiz pul to'lasa ham, baribir siz iste'molchisiz. Odam tug'ilgan paytdan boshlab umrining oxirigacha iste'molchi bo'ladi.



1-topshiriq.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Siz xarid qilish uchun bozor va do'konga borishni yaxshi ko'rasizmi?
2. Odatda siz nimalarni xarid qilasiz?
3. Siz nimalarni xarid qilishni yoqtirasiz, nimalarni yoq-tirmaysiz?
4. Bunda siz qanday muammolarga duch kelasiz?

Odatda siz ota-onangiz yordamisiz mayda xaridlar qilasiz, masalan, o'quv qurollari, kitoblar, oziq-ovqat do'konlaridan esa oila uchun non, sut, sariyog' sotib olasiz. 15 yoshdan oshgan o'smirlar ota-onalarining ruxsati bilan qimmatroq narsalarni xarid qilishlari mumkin. Lekin kattalar ham, bolalar ham bir xil muammolarga to'qnash keladilar.

Qanday qilib savodli iste'molchi bo'lish mumkin

Har birimiz savodli iste'molchi bo'lishimiz mumkin. Bunda tovarlar haqidagi bilimlar va ushbu bilimlardan foydalanishga doir muayyan ko'nikmalar yordam beradi. Eng ko'p xarid qilinadigan tovar – oziq-ovqat mahsulotlaridir. Ularning sifati yaxshiligini bilish uchun ularning o'ramasi yoki yorlig'i tamg'alanganiga ishonch hosil qilish zarur.

Tamg'alash o'ramga (idishga), yorliq yoki etiketkaga tushiriladigan matn, grafik, rang timsollaridan iborat bo'lgan

bir qator belgilashlardir. Ular tovar haqida aniq ma'lumotlar olishingizga imkon yaratadi.

Tovar – sotish uchun tayyorlangan buyumlar, mahsulotlar.

Odam biror-bir tovarni xarid qilib o'z ehtiyojini qondira olishi va undan maqsadga muvofiq foydalana olishi uchun **yorliqda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur:**

1. Mahsulotning nomi.
2. Mahsulotni tayyorlagan korxonaning nomi, uning manzili, telefoni.
3. Muvofiqlik bo'yicha sertifikatlash belgisi. Respublikamizda ishlab chiqariladigan barcha mahsulot sertifikatlanadi, ya'ni inson hayoti va salomatligi hamda atrof-muhit uchun xavfsizligi talablariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Agar mahsulot sertifikatlangan bo'lsa, unga maxsus belgi qo'yiladi.
4. Tayyorlanish sanasi va yaroqlilik muddati (vaqt o'tishi bilan mahsulotning sifati yomonlashadi).
5. Sof og'irlik (netto) va ichimliklar uchun hajm vazni.
6. Ayrim mahsulot uchun boshqa maxsus axborotlar. Masalan, mahsulotning kasalliklarning ayrim turlarida noxush ta'sir ko'rsatishi.
7. Oziq-ovqat (oqsil, yog', uglevodlar miqdori) va energetik (og'irlik birligida kaloriyalar tarkibi) qiymati.
8. Tarkibi (foydalaniladigan barcha qo'shimchalar – ingrediyentlar).
9. Shtrix-kod – tovarni ishlab chiqargan mamlakat, tayyorlovchi, yetkazib beruvchini belgilash uchun tovarlarning shtrixli kodi.
10. Tovar belgisi.
11. Tayyorlash usuli.
12. Saqlash usuli.
13. O'ramlash (qadoqlash) materiali.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yorliqlari ular tayyorlangan standartlar asosida to'ldiriladi. Masalan, osh tuzi yorliqlarida 1-,

2-, 3-, 5-bandlar ko'rsatilishi kerak. Agar tuz yodlangan bo'lsa, 4- band majburiy hisoblanadi, chunki vaqt o'tishi bilan yod mahsulotlardan uchib ketadi. Shokolad plitkalarida 7-, 8-, 12-bandlar majburiydir. Mahsulotdan noto'g'ri foydalanish xavfli bo'lishi mumkin, shuning uchun ko'pincha tovarga foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ilova qilinadi. Masalan, kiyimdagi foydalanish bo'yicha yo'riqnoma kiyim uzoqroq xizmat qilishi uchun unga qanday qarash kerakligini tushuntiradi, dorilardagi yo'riqnoma esa tezroq sog'ayish uchun uni qanday ichish kerakligini tushuntiradi.



2-topshiriq.

Xarid qilamizmi yoki xarid qilmaymizmi?

Guruhlarda ishlab, turli tovar yorliqlari va o'ramlari-ning namunalari o'rganing. Ularda axborot yetarlimi, u yuqorida sanalgan meyorlarga muvofiqmi, shuni aniqlang. Mazkur tovar va mahsulotlarni xarid qilasizmi, shuni hal qiling. O'z qaroringizni tushuntiring.

Savodli iste'molchi o'zining iste'mol huquqlarini bilishi zarur. Ular O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunida belgilangan:

1. Tovar haqida ma'lumot olish huquqi.

Iste'molchiga tovar haqida barcha narsani: uning sifati qandayligini, qachon, qayerda va kim tomonidan tayyorlangani, kafolat taloni bor-yo'qligi, xizmat ko'rsatish (yaroqlilik) muddati, uni qanday saqlash kerakligi, qayerda ta'mirlash mumkinligi to'g'risida zarur ma'lumotlarni berish sotuvchining burchidir.

2. Tovarni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi huquqi.

Sifatga doir talablar standartlar, ya'ni davlatning ushbu tovarga doir talablari va oldi-sotdi shartnomasining shartlari bilan belgilanadi.

Agar sotib olgan tovaringiz nuqsonli bo'lsa yoki undagi bi-ror xususiyat sizni qanoatlantirmasa, uni almashtirishingiz yoki

topshirib, pulingizni qaytarib olishingiz mumkin. Masalan, otangiz siz uchun kurtka sotib oldi, biroq u sizga kichik keldi. Kurtkani ana shunday, lekin katta o'lchamdagi kurtkaga yoki boshqa, sizga loyiq bo'lgan istalgan kurtkaga almashtirish mumkin. Bunda xarid narxi qaytadan hisob-kitob qilinadi. Mabodo do'konda sizga loyiq kurtka bo'lmasa, oldinroq sotib olingan kurtkani topshirib, pulini qaytarib olish huquqiga egasiz.

Faqat shuni yodda tutingki, qonunga ko'ra, bularning hammasini tovar xarid qilingan paytdan boshlab o'n kun mobaynida qilish mumkin, undan foydalanmagan bo'lishingiz va do'kon cheki bo'lishi shart. Kassa cheki – xarid qilish dalilini tasdiqlaydigan hujjatdir.

3. Tovarning xavfsiz bo'lishi huquqi.

Qonunda belgilanishicha, tovarlarni tayyorlovchi ularning iste'molchi hayoti, sog'lig'i, mol-mulki, shuningdek, atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishiga javobgar hisoblanadi. Masalan, agar zavod emizikli bolalar uchun o'yinchoqlar tayyorlasa, davlat standartlarida belgilangan xavfsizlik talablariga ko'ra ular maxsus bo'yoqlar bilan bo'yalishi, maxsus materiallardan tayyorlanishi, muayyan shaklga ega bo'lishi, mayda detallardan iborat bo'lmasligi kerak.

4. Iste'molchilarning buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun sudga, davlat organlariga murojaat qilish huquqi.

Ba'zan hatto qonunni, sotish qoidalarini yaxshi biladigan iste'molchi ham o'z iste'molchilik huquqlarini himoya qila olmasligi mumkin. Bunday hollarda u davlat organlari yoki sudga himoya so'rab murojaat etadi.

5. Iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish huquqi.

Faol fuqarolar o'z iste'molchilik huquqlarini himoya qilish uchun birlashmalar tuzadilar.

Turli do'konlarda sotish qoidalari va amaliyoti turlichadir. Odatda qoidalar ko'zga ko'rinarli joyga ilib qo'yiladi va buyumlarni almashtirish va ular qiymatini to'lash shartlari to'g'risidagi axborot bilan ta'minlanadi. Shaxsiy gigiyena buyumlari, ich ki-

yimlar, paypoq va boshqa buyumlar singari almashtirilmaydigan tovarlar mavjud. Bu qoidalar ham «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda ta'kidlangan.

3-topshiriq.

E'tiborli xaridor

Shunday vaziyatni ko'z oldingizga keltiring: radiotovarlar sotiladigan kichik do'kon peshtaxtasi oldida ikkita qizcha turibdi. Ular vitrinani ko'zdan kechirib, o'zaro qizg'in so'zlashmoqdalar. Ularning suhbatidan ma'lum bo'lishicha, qizlardan biri – Ra'no otasining tug'ilgan kuniga sovg'a qilish uchun qo'lda ko'tarib yuradigan radiopriyomnik sotib olmoqchi. Ular o'zlariga yoqqan modelni sotuvchiga ko'rsatishadi. Sotuvchi jimgina qutichaga o'ralgan radiopriyomnikni olib beradi. Ra'no pulni beradi va dugonasi bilan gaplashishda davom etib, xarid qilingan buyumni oladi. Xushnud dugonalar do'kondan chiqishadi.



Savollarga javob bering:

1. Qizchalarni e'tiborli xaridorlar deb atash mumkinmi? Mumkin yoki mumkin emasligini ayting. Dalillar keltiring.
2. Sizningcha, sotuvchi o'zining qanday burchlarini e'tibordan soqit qildi?
3. Sizningcha, agar tovar nuqsonli bo'lib chiqsa, uni almashtirish uchun Ra'no qaytib keladimi?



O'zingizni tekshiring

1. Savodli iste'molchi bo'lish uchun nimalarni bilish zarur?
2. Savodli iste'molchilar nohalol sotuvchilarga qanday ta'sir ko'rsata oladilar?



Uyga vazifa


Xarid qilish paytida siz aziyat chekkan taraf bo'lgan misollarni o'z tajribangizdan, ota-onangiz yoki tanishlaringiz tajribasidan eslang va ularni yozing. Nima uchun shunday hol yuz berganini tahlil qiling.



MA'MURIY HUQUQ VA O'SMIR

Dars natijasida siz:

- ma'muriy huquqqa ta'rif bera olasiz;
- ma'muriy huquq maqsadini tushuntira olasiz;
- ma'muriy huquq qo'llaniladigan vaziyatni tahlil qila olasiz;
- ushbu vaziyatlarni hal etish jamiyat hayotining sifatiga ta'sir ko'rsatishiga ishonch hosil qila olasiz.



1. Rasmlarni izohlang.
2. 1-rasmdagi holatda ayrim shaxslar nojo'ya harakatlar qila boshladi deb tasavvur qilaylik. Bu qanday harakatlar bo'lishi mumkin? Sanab bering.
3. Ularni bunday harakatlaridan to'xtatish uchun atrof-dagilar qanday choralar ko'rishlari lozim bo'ladi?
4. Qaysi paytda ichki ishlar xodimlariga murojaat qilish lozim bo'ladi?
5. 2-rasmdagi ichki ishlar xodimi bola bilan nimalar haqida suhbatlashayotgan bo'lisi mumkin deb o'ylaysiz?

Ma'muriy huquq amalda

Biz hayotimizning har kuni ma'muriy huquq ko'rinishlariga duch kelamiz: transportda yurish, uy-joydan foydalanish, do'kondan xarid qilish, ko'cha va uyda o'zini tutish, tabiatni muhofaza qilish va ko'plab boshqa holatlar bunga misoldir. Ma'muriy huquq fuqarolarning jamoat joylarida davlat tomonidan belgilangan tartibga, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarini boshqarish tartibiga rioya qilishlarini tartibga soladi. Fuqarolarning ma'muriy huquq sohasidagi huquqlari, burchlari va javobgarligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksida mustahkamlab qo'yilgan.



1-topshiriq.

Vaziyatni o'qib chiqing. Fikringizcha, qonun va huquq sohasiga taalluqli bo'lgan barcha holatlarni belgilang.

Shunaqasi ham bo'ladi: erta tongdanoq Manzura opaning barcha ishlari chappasiga ketdi. Yarim tungacha devor-darmiyon qo'shninikida o'yin-kulgi tinmadi: tug'ilgan kunni nishonlashdi. Manzura opa uzoq vaqt uxlay olmadi, ertalabga yaqin ko'zi uyquga ketdi. Tongda u tezda kiyinib, yo'lakka yugurdi. Yo'lakda qo'shnisining o'g'lini ko'rmay qoldi va salom berganida cho'chib tushdi. Jahl ustida bolaga shapaloq urib yubordi va oyoq ostida o'rmalab yurgani uchun urishib berdi. So'ngra avtobusga chiqishga ulgurish uchun ko'chani svetofoarning qizil chirog'i yonib turganida kesib o'tib chopishiga to'g'ri keldi. Bu yerda Manzura opa shoshilinchda uyda oylik yo'l chiptasini unutganini bildi. U «quyon» bo'lib yurmaslik uchun konduktordan chipta sotib oldi. Yo'lda borar ekan, Manzura opa telefon stansiyasiga kirish va uzib qo'ymasliklari uchun telefon haqini to'lashi kerakligini eslab qoldi. Ishga Manzura opa shu kuni kechikib bordi. Boshliq unga hayfsan berdi va mukofotdan mahrum qilishi to'g'risida ogohlantirdi.



1. Sanab o'tilgan holatlarda qonun kishilarning xulq-atvorini tartibga solishi kerakmi?

2. Qonun buni qanday amalga oshiradi?
3. Jamiyatda kishilarning xulq-atvorini tartibga soladigan boshqa usullar mavjudmi? Bo'lsa, qaysilar?

Kishining jamiyatdagi xulq-atvorini ko'pincha ma'muriy huquq me'yorlari tartibga soladi. Qonunda ko'chada, jamoat joylarida, transportda o'zini tutish qoidalari mustahkamlangan. Yong'in xavfsizligi qoidalari, savdo-sotiq qoidalari, xizmat ko'rsatish qoidalari, tabiiy muhitni muhofaza qilish, energiyadan foydalanish qoidalari esa nafaqat kishilarga, balki tashkilotlarga ham taalluqlidir. Qoidalarni bajarish ko'plarimiz uchun me'yorga aylangan, biz ularni hatto sezmaymiz ham. Kishi yoki tashkilot ushbu qoidalardan birortasini buzganda, «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeks harakatga keladi.

Kodeksning 10-moddasi qanday harakat (masalan, oz miqdorda talon-taroj qilish) yoki harakatsizlik (masalan, transportda chiptasiz yurish) ma'muriy huquqbuzarlik deb, ya'ni davlatimizda kishi yoki tashkilot uchun belgilangan xulq-atvor qoidalari buzish deb topilishini bizga tushuntiradi.

Kodeksning maxsus qismida qonun ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilaydigan va ular uchun javobgarlikni belgilaydigan 200 xatti-harakat sanalgan. Masalan, quyidagilar yuz berganida **ma'muriy javobgarlik** kelib chiqadi:

- yengil tan jarohati yetkazish (52-modda);
- militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik (194-modda);
- it va mushuk boqish qoidalari buzish (110-modda);
- hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish (111-modda);
- tuhmat (40-modda);
- haqorat qilish (41-modda);
- oz miqdorda talon-taroj qilish (61-modda);
- topib olingan mol-mulkni yashirish (62-modda);
- transport vositalaridan axlat va boshqa narsalarni tashlab yuborish (123-modda);
- transportda belgilanmagan joylarda chekish (122-modda);

- sanitariya qonun hujjatlarini buzish (53-modda);
- maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish (192-modda);
- qimor o'ynash (191-modda).

Mayda bezorilik, ya'ni jamiyatda xulq-atvor qoidalariga qasddan rioya qilmaslik keng tarqalgan ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. Bezori o'zining xulq-atvori bilan fuqarolar tinchligi va jamoat tartibini buzadi. Bunday harakatlarga quyidagilar kirishi mumkin: jamoat joylarida yomon so'zlar bilan so'kinish; bosh kiyimini yulqib olish; sigareta tutunini yuzga puflash.

Agar huquqbuzar o'zining xulq-atvori bilan nafaqat tartibni buzsa, balki kishilar, korxonalar, tashkilot yoki davlatga zarar yetkazsa, u O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksining 38-moddasiga ko'ra ushbu zararni qoplashi kerak.

Ma'muriy huquqbuzarliklar katta ijtimoiy xavfga ega emas, shu sababli huquqbuzar uchun javobgarlik chorasi jazo hisoblanadi. Ma'muriy huquqda «jazo» atamasidan foydalanganda, u huquqbuzarni qonunlarga rioya etish, jamiyatda hayot qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida qo'llanishi ta'kidlanadi. Ma'muriy jazoni qo'llar ekan, qonun ishontirish va majburlashni birlashtiradi. Jazo turlari ham «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksda sanab o'tiladi va tushuntiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- jarima, ya'ni davlat hisobiga pul undirish;
- ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish. Masalan, baliq ovlash qoidalarini buzadigan baliqchilardan to'ri olib qo'yilishi (musodara qilinishi) mumkin;
- maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish. Hammaga ma'lumki, rulni mast holatda boshqargan yoki yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzgan haydovchidan haydovchilik hujjati olib qo'yiladi;
- ma'muriy qamoqqa olish. Masalan, mayda bezorilik uchun kishini 15 sutkaga qamashlari mumkin.

Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lsa, huquqbuzar javobgarlikdan ozod etilishi va ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin. Masalan, agar fuqaro ko'chani piyodalar uchun belgilangan o'tish joyidan boshqa joyda kesib o'tsa, uni militsioner to'xtatadi va jarima olmaydi, balki yo'llarda harakatlanish qoidalari buzilgani xususida ogohlantiradi.



2-topshiriq.

Manzura opa voqeasini shunday o'zgartiringki, u o'smir uchun ko'p uchraydigan holat bo'lib qolsin. Guruhlarda quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. Voqeadada nimalarni o'zgartirishingizga to'g'ri keladi?
2. Siz kun davomida qanday qonunlarga rioya qilasiz?
3. Nima uchun ba'zi qonunlarga siz har doim rioya qilasiz, boshqalariga rioya qilishingiz esa juda qiyin bo'ladi?
4. Qanday qonunga rioya etish muhimligini, boshqasi-ga esa — muhim emasligini qanday hal etasiz?
5. Birgina qonunni buzganlik uchun katta kishi va o'smir bir xilda javobgar bo'ladimi? Nega?

Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligi

Qonunda belgilanishicha, shaxs 16 yoshdan boshlab ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Bu yoshda o'smir qanday xatti-harakatlar umumiy qabul qilingan xulq-atvor qoidalari-ni buzish deb hisoblanishini biladi va shu sababli ularni so-dir etganlik uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Qonun alohida, «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksning 14-moddasida voyaga yetmaganlarning, ya'ni 18 yoshga to'lmaganlarning ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarligini belgilaydi. Bunday huquqbuzarlarni jazolash to'g'risidagi qarorni voyaga yetmaganlarning ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya chiqaradi. Voyaga yetmaganlarning ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya ishni ko'rib chiqayotganida o'smirning hayot kechirish sharoitlari, uning xulq-atvori, do'stlari, ota-onasi tomonidan uni tarbiyalashga doir burchlarini bajarishi, oilaning yashash sha-

roitlari to'g'risidagi materiallarni to'playdi. «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksda huquqbuzar bolalarning ota-onalariga nisbatan jazo qo'llaniladigan moddalar mavjud. 47-moddada ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishga doir majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun jarima solish nazarda tutiladi. Agar o'smir oz miqdorda talon-taroj sodir etsa, mayda bezorilik qilsa, yo'l harakati qoidalariga rioya etmasa, militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmasa, u umumiy asoslarda, ya'ni katta kishi singari javobgarlikka tortiladi.



3-topshiriq.

Ota-onasi bozorga ketganida 10 yoshli Tohir qo'shnilarining hovlisiga tosh otib o'tirdi. Bitta tosh tasodifan «Tiko» mashinasining oynasiga tegdi va uni sindirdi.

Har bir vaziyatda quyidagi savollarga javob bering:

1. Kim javobgar bo'lishi kerak?
2. Bola ana shu yoshda javobgarlikni his etishi mumkinmi?
3. Ota-onalar bolalarni tarbiyalashga doir o'z majburiyatlarini bajara olmasalar, nima yuz beradi?
4. Qanday hollarda ota-onalar bolalarining xatti-harakatlari uchun javob bermasliklari kerak?



O'zingizni tekshiring

1. Ma'muriy huquq qanday maqsadga ega?
2. «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeks jamiyatning qanday muammolarini hal etishga yordam beradi?
3. O'smirlar huquqbuzarliklarni sodir etmasliklari uchun ota-onalar, maktab nima qila oladi?



Uyga vazifa

Ommaviy axborot vositalaridan «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksning amal qilishiga misollar tanlab oling.

MUNDARIJA

KISHILAR HAYOTIDA QONUN

<i>Birinchi sayohat</i>	
Konstitutsiya va inson harakatlari erkinligi.....	4
<i>Ikkinchi sayohat</i>	
Konstitutsiyaning mamlakat qonun hujjatlariga ta'siri	10
<i>Uchinchi sayohat</i>	
Zararli odatlar va qonun.....	16
<i>To'rtinchi sayohat</i>	
«Qonunlar qanday yoziladi?» Amaliy dars.....	21

FUQAROLIK HUQUQI VA O'SMIRLAR

<i>Beshinchi sayohat</i>	
Voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari.....	25
<i>Oltinchi sayohat</i>	
Voyaga yetmaganlar tomonidan bitimlar tuzilishi	31
<i>Yettinchi sayohat</i>	
Iste'molchining huquqlari va o'smir.....	35

MA'MURIY HUQUQ NORMALARI VA VOYAGA YETMAGANLAR

<i>Sakkizinchi sayohat</i>	
Ma'muriy huquq va o'smir.....	41

7200 c

KOSTETSKIY V.A., TANSIQBOYEVA G.M., RAHIMOV R.I.

**KONSTITUTSIYA
OLAMIGA
SAYOHAT**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
7-sinfi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — Yangiyo'l poligraf servis — 2015

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir — J. Azimov

Texnik muharrir — M. Riksiyev

Sahifalovchi — K. Kostetskiy

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 22.12.2015.

Bichimi 60x90^{1/16}. «Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi.

Bosma tabog'i 3,0. Nusxasi 40 000.

Buyurtma № 53-15.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxona.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44